ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RAXMONOVA DILDORA MIRZAKARIMOVNA

TAVALLO IJODIDA POETIK SHAKL, MAZMUN VA OBRAZ YANGILANISHI TAMOYILLARI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UO‘K: 821.512.133:82:111. 852

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna
Tavallo ijodida poetik shakl, mazmun va obraz yangilanishi tamoyillari.....3

Рахмонова Дилдора Мирзакаримовна
Принципы обновления поэтической формы, содержания и образа в творчестве Тавалло.....25

Rakhmonova Dildora Mirzakarimovna
Principles of poetic form, content and image renewal in Tavallo's work.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....54

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RAXMONOVA DILDORA MIRZAKARIMOVNA

TAVALLO IJODIDA POETIK SHAKL, MAZMUN VA OBRAZ YANGILANISHI TAMOYILLARI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1275 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Karimov Naim Fotihovich** filologiya fanlari doktori, akademik
	Ernazarova Gulnoza Hamrayevna filologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «30» mart kuni soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (252 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «17» mart kuni tarqatildi.
(2023-yil «17» mart dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).

I.I.Adizova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., dotsent

O.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., dotsent

Q.B.Yo'ldoshev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, ped.f.d., professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ijodiy an'ana va yangilanish jarayonining badiiy adabiyotdagi voqelanish qonuniyatlari, bu tendensiyaning har bir ijodkor asarlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lish sir-sinoati hamda adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri doimiy diqqat-e'tibordagi masalalardandir. Ijod jarayoni bilan bog'liq yangilanish adabiyotshunoslik rivojiga ta'sir ko'rsatgani singari adabiyot ilmining taraqqiy etishi ijodiy tafakkur takomilini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ana shu ikki hodisa – ijod jarayoni va adabiyotshunoslik ilmi qonuniyatlarining bir-birini taqozo etishini isbotlaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida poetik tafakkur yangilanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari muayyan ijodkorlar asarlari misolida muttasil baholanib kelmoqda. Poetik tafakkurning takomil darajasi har bir shoir yoki adib ijodida o'ziga xos shakl va mazmun, yangicha obraz va badiiy uslub orqali namoyon bo'lishi e'tiboridan individual yondashuvni taqozo etadi. Natijada adabiyotshunoslik badiiyat hodisasini baholashning yangi ilmiy-nazariy mezonlari, tahlil metodlari bilan boyib boradi. Bunda har bir milliy adabiyotshunoslikning o'ziga xos estetik tamoyillari bo'lishi shubhasizdir.

O'zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur yangilanishi jarayoniga xos qonuniyatlarni ilmiy baholash bugungi kunda har qachongidan ham muhim muammolardandir. Ma'lumki, poetik tafakkur yangilanishi dastlab poetik shakl va mazmunda aks etadi. Yangi shakl yangicha mazmunni taqozo qilgani kabi ohorli mazmun o'ziga xos shaklda badiiy voqelanadi. Jadid she'riyati xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'analaridan hamda jahon estetik tafakkuri tajribalaridan foydalangan holda poetik shakl va mazmunni ham, obraz va uslubni ham yangilay oldi. Poetik shakl va mazmundan farqli o'laroq yangilanishi badiiy ijod jarayonining nisbatan murakkab bosqichi hisoblanadi va katta ijodiy salohiyatni talab qiladi. To'lagan Xo'jamyorov Tavallo – o'zbek jadid adabiyotining yorqin siymosi sifatida poetik tafakkur yangilanishida alohida o'rin tutadi. Shoir adabiy merosini poetik shakl, mazmun va obraz yangilanishi tamoyillari nuqtayi nazaridan baholash shuning uchun ham dolzarb ilmiy muammolar sirasiga kiradi. Chunki "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"[1]. Shuning uchun ham, Tavalloning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, qit'a kabi lirik janrlardagi hamda badiiy publitsistika yo'nalishidagi asarlarini adabiyotshunoslikning so'nggi yutuqlari asosida baholash zarurati ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili

[1]Мирзиёев Ш.М. "Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир" мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август.

sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 10-fevraldagi 61-sonli “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuviga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tavallo ijodi har doim adabiyotshunoslik e’tiboridan tushmay kelgan. Xoh tanqidiy, xoh tahliliy ruhda bo‘lsin, uning shaxsiyati va ijodi adabiyotshunoslikda katta qiziqish uyg‘otgan. Hamid Olimjon shoir ijodini: “Uni boshqalardan ajrata turgan, ayrim, alohida o‘ringa qo‘yaturgan narsa Tavalloning uslubdagi originalligi, ...she’rlari xalq o‘rtasiga osonlik bilan kira bilar edi va kirdi, ...o‘xshatishlari juda ham nishonga tegar edi”[2] tarzida e’tirof etgan. “Tirik satrlar”[3] to‘plamiga uning o‘nga yaqin she’ri kirgan. Mustaqillik epkinlari esa boshlagan o‘tgan asr 90-yillarida Rahimjon Fayzullayev “Sharq yulduzi” jurnalida shoirning tanlangan she’rlarini e’lon qildi [4].

Istiqlol davrida Tavallo ijodi keng miqyosda o‘rganilishi uchun yo‘l ochildi. 1993-yili professor Begali Qosimov “Ravnaq ul-islom”ni so‘zboshi bilan nashr ettirdi. Olim: “Uning nomi bugungi o‘quvchiga yaxshi tanish emas. 20-yillardagi avlod uni yaxshi bilgan. Mash’um 30-yillarda bu nom Behbudiy va Fitrat bilan bir qatorga qo‘yilgan edi”[5], deb yozadi. So‘zboshida shoir biografiyasi va ijodiga oid muhim faktlar ilk bor ma’lum qilindi. Tavallo ijodi olimning xizmatlari bois oliy ta’lim dasturlari va darsliklariga kirdi. “O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotiga materiallar” (1-son) to‘plamida adibning she’r, maqola va hajviyalari nashr etildi[6]. Jadidshunos akademik Naim Karimov tadqiqotlarida ham Tavallo ijodiga alohida e’tibor qaratilgan[7]. Shuningdek, Ziyo Said, P.Qayyumov, M.Xudoyqulov,

---

[2] Олимжон Ҳ. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 6-том. Тадқиқот ва мақолалар. – Т.: Фан, 1982. – Б.148.
[3] Тирик сатрлар: Танланган шеърлар. – Т.: Бадиий адабиёт, 1968.
[4] Файзуллаев Р. Тавалло. Шеърлар. // Шарқ юлдузи, 1990, 8-сон. – Б.181-183.
[5] Тавалло. Равнақ ул-ислом (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Б.Қосимов). — Т.: Фан, 1993. – Б. 3.
[6] Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004; Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар (Нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, У.Долимов, Н.Жабборов). – Т.: Университет, 2004.
[7] Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 85-95; Тавалло ҳақида сўз. // Тавалло. Миллата жонлар фидо (Назм ва наср). – Т.: Адабиёт учқунлари, 2013. – Б. 3-14; Ёниб яшаган шоир. // Тавалло. Миллат садоси (Шеърлар, ҳажвиялар мақолалар). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 7-22.

N.Abduazizova, T.Pidayev, R.Shamsutdinov, A.Jalolov, H.O‘zganboyev, N.Jabborov, Q.Pardayev kabi olimlarning tadqiqotlarida Tavallo va uning ijodi haqida muayyan fikrlar bildirilgan[8]. Shoir ijodiga xorijda ham qiziqish bildirilgan. 1997-1998-yillarda Germaniyadagi Bamberg universiteti turkologiya bo‘limida “Ravnaq ul-islom” bo‘yicha ixtisoslik kursi o‘qitilgani, uning ayrim she’rlari olmon tiliga o‘girilgani, http://zerrspiegel.orientphil.uni-halle.de saytida “Ahvoli zamondin namuna” g‘azali joylashtirilgani, shoir haqidagi ma’lumotlar Qrimning http://gabdullatukay.ru saytidan o‘rin olgani buni tasdiqlaydi.

Ushbu dissertatsiya Tavallo adabiy merosi birinchi marta monografik asosda o‘rganilayotgani bilan avvalgi tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishning konseptual muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tavallo she’riyatida poetik shakl, mazmun va obraz yangilanishining adabiy-estetik tamoyillarini belgilash hamda ijodkor badiiy publitsistikasining poetik tafakkur yangilanishidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tavallo lirikasida poetik shakl va badiiy uslub yangilanishi tamoyillarini aniqlash;

poetik mazmun yangilanishida individual ijodiy tafakkurning o‘rnini belgilash;

shoir ijodida poetik obraz yangilanishining ijtimoiy-tarixiy asoslarini tekshirish;

adabiy-estetik tafakkur poetik obraz yangilanishining asosi ekanini dalillash;

adib badiiy publitsistikasining poetik tafakkur yangilanishidagi o‘rnini aniqlash, tili va uslubiy o‘ziga xosligini baholash;

Tavallo ijodiy merosining milliy uyg‘onish adabiyotida tutgan o‘rnini belgilash.

Tadqiqot obyekti sifatida “Ravnaq ul-islom” to‘plami, XX asr boshlarida nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari hamda “Oyna”, “Al-Isloh”, “Mushtum” jurnallaridagi she’rlari va badiiy-publitsistik maqolalari, Munavvarqori tomonidan to‘plangan “Sabzazor” bayozi, O‘zbekiston Respublikasi DXX arxividagi Tavalloga oid 32592-raqamli “ish” materiallari tashkil etadi.

---

[8]Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. – Т.: Академия, 2000; Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т.: Академия, 2002.; Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикаси шаклланиш ва ривожланиш тамойиллари. – Т.: Университет, 1995.; Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2001; Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Ш.Турдиев). – Т.: Ўзбекистон, 1974.; Жалолов А., Ўзганбоев Х. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг роли. – Т.: Фан, 1993; Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилд. – ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳрир-нашриёт бўлими, 1998; Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август – 5 ноябр). – Т.: Шарқ, 2007; Фидойи Т. Матбуот жонкуяри // Ўзбекистон матбуоти. – Тошкент, 1998, №2; Жабборов Н. Миллата жонлар фидо // Моҳият. – Тошкент, 2004, №18; Пардаев Қ. Миллий уйғониш даври манбаларида адабий ва публицистик муаммолар талқини (“Ал-Ислоҳ” журнали материаллари асосида): фил. фан. номз... дисс. – Т., 2008.

Tadqiqot predmetini Tavallo ijodida poetik shakl, mazmun va badiiy uslub hamda poetik obraz yangilanishi tamoyillari, shuningdek, badiiy-publitsistik talqin masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, analitik, germenevtik, biografik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tavallo lirikasida poetik shakl va mazmun yangilanishi tadrijiy suratda bosqichma-bosqich kechgani, Vatan va millat mavzusining yetakchi o‘ringa ko‘tarilishi, poetik mazmunning ijtimoiylashuvi, she’riyatning jonli tilga, xalq og‘zaki ijodiga yaqinlashuvi singari adabiy-estetik qonuniyatlar vositasida namoyon bo‘lgani asoslangan;

shoir nazmiy asarlarida an’anaviy poetik shakl saqlangani holda uslub yangilangani an’anaviy aruz doirasida barmoqqa o‘tish jarayoni, ijodkorning badiiy niyatini ifodalashda Sharq-u G‘arb odamlarining surati-yu siyratini qarshilantirish usulidan san’atkorona foydalangani, makaronik poeziyaga xos ajnabiy so‘zlarni faol qo‘llash orqali yaratilgan kulgili satirik va yumoristik she’rlari misolida dalillangan;

ijodkor she’riyatida poetik obraz yangilanishi qonuniyatlari Vatan va millat obrazi, ma’rifatli va ilmsiz zamondoshlar obrazi, Ovrupo odamlari obrazi tarzidagi tasnif asosida yoritilib, har bir obraz, shoir badiiy niyatidan kelib chiqib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekani, ijod konsepsiyasini ifoda etgani, ijodkor estetik ideali mukammal poetik talqin etilgani bilan milliy she’riyatimizda o‘ziga xos yangilik ekani isbotlangan;

badiiy-publitsistik asarlari adibning ijtimoiy-siyosiy faolligini ko‘rsatishi barobarida bid’at va mutaassiblikni qoralash, Vatan va millat taraqqiysi, maktab ta’limi va ilmni taraqqiy ettirish, yangi zamon fan-texnologiyasidan xabardorlikka da’vat tarzidagi tasnif asosida yoritilib, poetik tafakkuri yangilanishida ham o‘ziga xos ma’rifiy-estetik omil vazifasini o‘tagani ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Tavallo she’riyatida poetik shakl va badiiy uslub yangilanishining ilmiy-nazariy asoslari dalillangan;

ijodkor nazmiy asarlarida poetik mazmun yangilanishi tamoyillari va bunda individual ijodiy tafakkurning o‘rni belgilangan;

shoir lirikasida poetik obraz yangilanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari aniqlangan;

Tavalloning nazmiy, hajviy, publitsistik merosi namunalari jamlangan “Millata jonlar fido”, “Millat sadosi”, “Ey Vatan, ezgu Vatan” to‘plamlari nashr ettirilgan[9].

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan

[9] Тавалло. Миллата жонлар фидо (Нашрга тайёрловчилар: И.Остонақулов, Д.Рахмонова. Масъул муҳаррир: Н.Каримов). – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2013; Тавалло. Миллат садоси. (Нашрга тайёрловчи: Д.Рахмонова). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015; Тавалло. Эй Ватан, эзгу Ватан. (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Д.Рахмонова). – Т.: Adabiyot, 2021.

tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Tavallo ijodida poetik mazmun, shakl, uslub yangilanishi, adib badiiy publitsistikasining poetik tafakkur yangilanishidagi o‘rni aniqlanishi negizida o‘zbek jadid adabiyotiga oid tadqiqotlarda erishilgan ilmiy xulosalar boyitilganida, poetik obraz yangilanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari hamda badiiy-publitsistik asarlarida davr voqeligi ifodasiga doir nazariy qarashlar takomillashtirilganida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek jadid adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy o‘quv yurtlarining “Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishida “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “XX asr o‘zbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)” magistratura mutaxassisligida “Jadid adabiyoti tarixi” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tavallo ijodida poetik mazmun, shakl va obraz yangilanishi tamoyillari masalasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tavallo she’riyatida poetik mazmun, shakl va badiiy uslub yangilanishi qonuniyatlari, poetik obraz yangilanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik asoslariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-FI-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihaning “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 6-yanvardagi 01/4-18-son ma’lumotnomasi). Natijada Tavallo she’riyatida poetik tafakkur yangilanishining milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti takomilidagi o‘rniga doir adabiyotshunoslikdagi mavjud qarashlar boyitilgan;

Tavallo lirik asarlari misolida poetik mazmun, shakl va obraz yangilanishi tamoyillari, obraz evrilishining ijtimoiy-tarixiy asoslariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan “PZ-20170926459 – “Navoiyshunoslik tarixi” (XX-XXI asrlar)” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 6-yanvardagi 01/4-19-son ma’lumotnomasi). Natijada Tavallo she’riyatida poetik mazmun yangilanishida Alisher Navoiyning nazmga doir estetik qarashlari asos vazifasini bajarganiga doir ilmiy xulosalardan istifoda etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta, shu jumladan, xorijiy jurnallarda 6 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tavallo lirikasida poetik shakl va mazmun mutanosibligi”** deb nomlangan birinchi bobi dastlabki faslida *“Poetik shakl va badiiy uslub yangilanishi”* masalasi tahlil etilgan. Ko‘plab manbalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti shakl borasida yangilanishlar davri sifatida ko‘rsatiladi. Adabiyotga yangi janrlar kirib kela boshladi. Bunda Tavalloning ham hissasi bor edi. U dastavval an’anaviy vaznda ijod qilsa-da, mavzu va so‘z tanlash borasida boshqalarni takrorlamaslikka, mumtoz she’riyat an’analarini yangilashga urindi. Chunki xoslar she’riyati sanalgan aruzda hijo talabiga javob bermaydigan so‘zlar jadid she’riyatining xalqchillashuvi mahsuli sifatida ko‘rila boshladi. Xalqchillashuvdan maqsad millatni uyg‘otish edi. Shu sababli jadid adabiyotida “milliy she’r” atalmish shaklan aruzni, mazmunan barmoqni eslatuvchi ijod mahsullari yuzaga keldi. O‘zgacha mazmun, yangi poetik obraz va ifoda adabiy istifodaga kiritila boshlandi. Shoirning “Ravnaq ul-islom” to‘plami buning isbotidir.

Tavallo aruzda she’riyatning go‘zal namunalarini yarata oldi. O‘rni bilan aruz qoidalaridan bir qadar chekindi ham. Hamza Hakimzoda Niyoziy bunday urinishni *“...bu adabiyotdan xabarsizlik emas, qora elimizni tushunuvina o‘ng‘ay bo‘lsin uchun”,* deb tushuntiradi. Jadid davri poetikasi bo‘yicha tadqiqotchi N.Afoqova esa bu holatga *“aruzdan boshqa vaznga o‘tisholdi jarayonini aks ettiruvchi o‘zgarishlar”,*[10] deb baholaydi. Shoir shaklda an’anaviylikni saqlagan holda ham original uslubda ijod qilgan. Jumladan, “Tamoshobog‘ xususida” sarlavhali g‘azalida “parilar” va “bizni el”ning har bir xatti-harakatini qarshilantirish orqali mavzu ochib beriladi. Kundalik voqealardan bir parcha tariqasidagi tasvirda millatning madaniy holati to‘laligicha tasvirlanadi. Voqea har yerida go‘zallar sayr qilayotgan tomoshabog‘da sodir bo‘lmoqda. Bu go‘zallarning nafaqat surati, qadam tashlashidan tortib, nafas olishiga qadar ham havas qilsa arziydi. Bog‘i Eram tovuslarining parlarini qalpog‘iga qadagan bu parilar oldida millatni uyatga qoldiradiganlar ham uchrab turadi:

Ko‘tarib ishtonni tizdan yuqori, ko‘krak ochiq,
Bir qilandon, bir fichoq, bir nosqovoq belbog‘ida.

[10] Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси (вазн ва қофия муаммолари). – Т.: “Фан”, 2005. – Б. 23.

Oh, bularni necha mahbublar ko‘rub, yom-yomu deb,
Hech yaqin kelmay, ko‘ringiz, har taraf qochmog‘ida.

Shu o‘rinda parilarni zamonaviy ilm-ma’rifat ramzi deb oladigan bo‘lsak, na risoladagidek sayr qilishni va na kiyinishni bilmaydigan “yom-yom”lar millatni taraqqiyotdan ortga tortguvchi illatlar, jaholat, ilmsizlik timsoli. Tomoshabog‘ bu o‘rinda dunyo ramzi, ya’ni ilmga jidd-u jahd etmay, belga nosqovoqni ilgancha, dunyo tomoshasiga, maishatga berilib, undan naf olmay o‘tib ketishga ishora. Ayonki, Tavallo ijodida obrazlarning yangi mazmun-mohiyatga evrilishida shakliy yangilikka intilish kuzatiladi.

Yangilikka, shakliy rang-baranglikka intilish hosilasi o‘laroq dialoglardan foydalanish kuchaya bordi. Ko‘p asrlik an’anaviy shakldan chekinishda dialogik nutqning ahamiyati yaxshigina sezila boshladi. Dialog lirikada badiiy nutq ta’sirchanligini oshirishi mumtoz adabiyot tajribasidan ma’lum. Tavallo ham ushbu shaklga faol murojaat etadi:

Dedim: “Ey bulbuli nola, ko‘zingdin to‘kmagil jola,
Tarahhum qil bu ahvola, berur sanga g‘izo, millat”.

Dedi: “Mandin xabar shuldur, magar o‘ldur va gar kuldur,
G‘izosiz rangimi so‘ldur, kerakmaz o‘zga jo, millat”.

Ko‘rinib turibdiki, shoir dialog orqali butunlay yangi mazmunni ifodalamoqda. Millatning zabun ahvolidan so‘z ochmoqda.

She’rlarga sarlavha qo‘yish an’anasi ham jadid she’riyatidan boshlandi. Shoir “Ravnaq ul-islom” to‘plami hamda “Sabzazor” bayozidagi deyarli har bir she’riga poetik maqsadni aniqroq ifoda etish uchun sarlavha qo‘ygan. Bu esa, o‘z navbatida, asarning shaklan yangilanishini, badiiyati mukammallashuvini ta’minlagan.

Tavallo ijodida, shuningdek, ma’rifiy mavzulardagi g‘azallar hajman yiriklashib borgani kuzatiladi: uning 63 ta g‘azalidan bittasi 5 baytli, to‘rttasi 7 baytli, oltitasi 8 baytli, yettitasi 9 baytli, to‘qqiztasi 10 baytli bo‘lsa, qolgan 37 tasini 11 va undan ko‘p baytli g‘azallar tashkil etadi.

Tavallo she’riyatida “Mushtum” jurnalida “Mag‘zava”, “Muxbircha” taxalluslari bilan ijod qilgan yillar o‘ziga xos bosqich bo‘ldi. Endi u uslub jihatidan ham, badiiyatiga ko‘ra ham avvalgi Tavalloni eslatmaydi. “Mushtum”dagi she’rlari salohiyatli shoirning bunday sayoz asarlar yozishiga nima sabab bo‘lgani haqidagi savollarni paydo qiladi. “Kuni kecha o‘z she’rlari bilan xalq o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozongan iste’dodli shoir ana shu tarzda so‘nib, so‘nibgina emas, xor bo‘lib yashadi”[11]. Ayrimlar uning bu kabi holatga, jo‘n va istehzoli ijod yo‘liga tushib qolishiga farzand dog‘i sabab bo‘lgan, deya ko‘rsatishadi. Bizningcha esa, yo‘l boshida qo‘yilgan ulkan maqsadlarning yo‘qqa chiqqani, bir umr kurashilgan orzuning boshqalar tomonidan toptalgani shoir ruhiyatiga ko‘proq salbiy ta’sir qilgan.

“Mushtum” jurnalining 1924-yil, 7-sonida “Hozirg‘i pivoxona ashulasi”, o‘sha yili 22-dekabr, 23-sonida “Muborakbod” she’rlari e’lon qilinadi. Ular mavzu, uslub, ifoda shakli va vositalari jihatidan Tavallo ijodida yangilik, folklor an’analari yo‘lida edi: *Oshnamsan, oshnamsan, Etugimdagi poshnamsan. Quy pivangni, tort tevangni...*

[11] Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2008. – Б. 91.

Tavallo she'riyatida o'z davriga xos bo'lgan yana bir uslubiy yangilik uning makaronik poeziyaga ham qo'l urganidadir. "Ajnabiy so'zlarni (varvarizmlarni) ko'plab kiritish natijasida yaratilgan kulgili satirik va yumoristik she'rlar"[12]ini asosan "Mushtum" jurnali orqali o'quvchilarga yetkazdi. Mana, ulardan biri:

"Izdirast" "aznakum" desam ko'chada,
Bir xotin o'xshatib chunon urdi.
"Binavat fajalist" desam qaramay,
Sudrabon teptilar, sho'rim quridi.
"Vot bilat men chilen" dedim yig'lab,
"Cho'rt , ishak, molchi !" deb yuzin burdi...

Bu she'rda, birinchidan, milliy axloqning izdan chiqqani, ikkinchidan, rus tilini chala bilish xalqimizni mustamlakachilar oldida xijolatli holga solgani, uchinchidan, istibdod siyosati millatni xor va zabun qilgani kinoya ohangida iztirob bilan ifodalangan. Umuman, Tavallo she'riyatidagi shakliy o'zgarishlar o'sha davr ijtimoiy-adabiy voqeeligi bilan bog'liq holda kechdi.

Birinchi bobning *"Poetik mazmun yangilanishida individual ijodiy tafakkurning o'rni"* deb nomlangan ikkinchi faslida Tavallo ijodiy tafakkuri, uning jadid adabiyotidagi o'rni ilmiy baholangan. Shoir ijodida gul, bulbul obrazlari, zamondoshlari kabi Vatan, millat, ilm-ma'rifat mavzusi yetakchilik qilgan bo'lsa ham, individual ijodiy tafakkur orqali ularni yangilay oldi. Obrazlarga yangi ma'no yuklash asnosida mazmuniy novatorlikka intilish Tavallo ijodining asosini tashkil etadi. Shoir she'riyatida mazmun yangilanishi asosan to'rt yo'nalishda kechdi: *1) milliy; 2) diniy-ma'rifiy; 3) ilm-ma'rifat mavzusi; 4) ijtimoiy.*

Shoir millat hayotini ro'y-rost ifodalagan asarlar yozdi. Bu orqali millatga oyna tutdi, uning hayoti o'nglanishini orzu qildi. "Savqi taraqqiy" sarlavhali g'azalida bu fikr, ayniqsa, ochiqroq aks etgan. Shoir vatandoshlarini g'aflat uyqusidan uyg'onishga, jaholat chodiridan chiqishga chorlaydi. Zamondan boxabarlik istasang, she'r o'qi, deya xitob qiladi. Chunki u yashayotgan davr ijodkorlari she'riyatga yangi vazifalar yuklagan, bu xalqning ijtimoiy hayotida yaqqol ko'zga tashlanayotgan edi:

Zamondin voqif o'lmoq istasang nazmi Tavalloni
O'qi, millat, bo'lursan boxabar olamni korindan.

"Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1915-yil 15-may, 121-sonida chop etilgan "Vujudimdan bir rijo" sarlavhali muxammasida millatga xizmat etish shartini bayon qiladi. Bu dunyoda borlikning sharti, tiriklik nafi – xalqqa xizmat qilmoqda ekanini yuksak badiiy talqin etadi:

Ey qo'lum, pul tutma hargiz millatga yordamlashmasang,
Bo'lma xushnud, ey dilim, millat g'amin g'amlashmasang.
Ravshan o'lma, ey ko'zum, yoshing to'kub namlashmasang,
Fikrim, ochilma, agar she'ring yozib xamlashmasang.
Chiq ichimdan, jonim, ey san, manga hamdamlashmasang.

---

[12] Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 174.

“She’rlarim bilan xalqni g‘aflatdan bedor qilolmasam, Yaratganga qanday yuzlanaman?” degan xavotir uni mudom qiynaydi. Bu xavotir asossiz emas edi. Chunki zamona odamlari *“millati mahv o‘lsa”* parvo qilmaydigan, *“sho‘rbo, palov, norin”* berib, *“so‘ngra ikki yelkasiga tefsalar”* ham ori kelmaydigan, indamas gung holiga kelib bo‘lgan... Bu ko‘rguliklar yechimi ilmu ma’rifatda ekanini yaxshi anglagan shoir zamondoshlarini farzand kamoli uchun mablag‘ tikmoqqa chorlaydi, *“qorong‘u dilni yoritguvchi”*, *“maqsudg‘a yetkazguvchi”* vosita ilm ekaniga ishontirmoqchi bo‘ladi:

Hushing o‘lsa, do‘stlar, aldanma boylar molig‘a,
Boqmag‘il turlik libosa, boq aning a’molig‘a,
Necha ta’lim aylayur, atfolining akmolig‘a,
Abr-u nayson demag‘il, gulshanda gul ahvolig‘a,
Qatrayi boron emasdir, diydayi giryonidir.

Tavallo ijodiy tafakkuri takomilida folklorning ham o‘ziga xos ta’siri bo‘lgan. Qarg‘ish va alqov (olqish)lardan san’atkorona foydalangani shoir she’rlarining xalqchillashuviga olib keldi: *“To‘g‘ri yurgil, bo‘lmasa, sinsun ayog‘, bo‘lg‘il cho‘loq”, “Ajab tashvishlara o‘lding sabab olamda, girmon, o‘l, Xusumatdor o‘lmay, sen bu kun yer birla yakson o‘l”, “Bilmading qadrimni deb, go‘r ichra tanbeh bermagil”* kabi satrlar buning isbotidir. Bu xususiyat shoir hajviyotida, ayniqsa, yetakchilik qiladi. Tavalloning hajviy lirikasi mavzularning rang-barangligi jihatidan alohidalikka ega. Shoir hajviy she’rlarini mavzu jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijtimoiy hayot voqealari tasvirlangan she’rlar (“Nijniy yarmarkasida yangi ashulalar”, “Sharq maktabida imtihon”, “O‘ktabr ashulasi”).
2. Xotin-qizlar ahvoli, huquqlari ko‘rsatilgan hajviy she’rlar (“Mazluma qizlar ashulasi”, “Mayligamu?”, “Xotin-qizlar fig‘oni” kabi).
3. Hayotdagi salbiy illatlar tasvirlangan hajviy she’rlar (“Hozirgi pivoxona ashulasi”, “Restoran”, “Hofizlar tilidan”, “Mushtum kupleti”).
4. Matbuotning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga doir she’rlar (“Mendan non savat”, “Qalam”, “Izhori tashakkur”, “Yaqinda ja-ja-jakdir” kabi).
5. Din ahli tanqidi, ahvoli berilgan hajviy she’rlar (“Ro‘zada mashg‘ulotim”, “Tegirmon navbati bilan”, “Yanvar to‘poloniga bag‘ishlab”).

Mazkur hajviy she’rlar muxammas, murabba’, musaddas, g‘azal, masnaviy janrlarida yozilgan. Shoir hajviyotda ironiya va kinoya usullari asosida mazmunning kuchayishiga erishadi. Masalan, “Muborakbod” she’rida ironiya usulida tashqi shakl ichki mazmunga zid holda tasvirlangan. Qaysi janrda yozmasin, shoir mazmunga alohida diqqat qaratadi. Jumladan, uning quyidagi misralarda chaqiriq, da’vat mazmuni yetakchilik qiladi:

Qalam olg‘onda qo‘lum, yosh ko‘zumdin tomadur,
Tushaman qancha xayola, boqaman tong otadur,
Muni millat bolasi bilmayin uxlab yotadur,
Yana g‘amga qolaman, kim muni deb uyg‘otadur,
Turing emdi siza derman, hama el bo‘ldi ravon,
Yetdi maqsad uyina qolmadi munda karvon.

Ko‘rinib turganidek, Tavallo she’riyatida mazmunning yangilanishi bosqichma-bosqich takomillashib, obrazlar, janrlar, shakllar vositasida amalga oshadi. Uning she’riyati yangilanib borayotgan lirikaning mukammal qiyofasi yaralishida muhim o‘rinni egallagani bilan xarakterlanadi.

Ishning **“Tavallo ijodida poetik obraz yangilanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobi birinchi faslida *“Poetik obraz evrilishining ijtimoiy-tarixiy asoslari”* masalasi o‘rganilgan. Shoir she’rlari uchun tanlangan obrazlar nihoyatda jonli va maqsadli. Uning she’riyatida badiiy takomilga erishmagan obrazni topish mushkul. Eng avvalo, bu obrazlar jamiyat taraqqiyoti uchun mas’ullik pozitsiyasida ekani bilan ahamiyatlidir. Shu jihatdan, shoir she’riyatidagi eng faol obrazlarni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) *Vatan va millat obrazi; 2) ma’rifatli va ilmsiz zamondoshlar obrazi; 3) Ovrupo odamlari obrazi.*

Ey Vatan, ezgu Vatan, afv ayla, qadring bilmaduk,
Emdi bilduk, bosh ko‘tarduk, ko‘rki bizlar uyqudan, -

deya yozgan shoir Vatanning zulmatga botishida insonlarning g‘aflat uyqusida ekanini asosiy sabab sifatida ta’kidlaydi. *“Suyukli Vatan haqinda”* degan sarlavhada ham teran ma’no bor. Vatan suyukli, ammo og‘ir ahvolda. Uning bu ahvoldan qutulishi uchun jidd-u jahd zarur: *“Movarounnahrdir tarixdan bizlarga Vatan, Arzig‘ay bizlar sanga xizmatda bo‘lsak jonu tan”.* Tavallo fikricha, har bir musulmonning vazifasi Vatanni chin dildan sevish, uni obod qilish (“U sizlarni yerdan paydo qildi va unga sizni obodligi uchun qo‘ydi”[13]) – Allohning hukmi. Shu sabab, afsuslarni aritish, Vatanni xushnud etish, millatga xizmat qilib, uning bog‘ini “tikan”u “zag‘an”lardan tozalash, “bog‘ aro millat bolasi”ni bulbul kabi sayratmoqqa kirishish kerak:

Bog‘ aro millat bolasi sayrasun bulbul kibi,
Tez xijolatdin jo‘nasun, anda qolmasdin zag‘an.

Shoir ijodida millat – bosh mavzu, umumlashma obraz darajasiga ko‘tarildi. Bu obraz ayrim o‘rinlarda kuch-qudratda tengsiz, ba’zan tarixdagi yuksak sha’nini qo‘msayotgan chorasizlik timsoli, ba’zan bukik qaddini tiklash uchun farzandlaridan g‘ayrat-shijoat kutayotgan ona ramzi hisoblanadi. An’anaviy adabiyotda ijodkorning shaxsiy “men”i oshiq obrazida gavdalangan bo‘lsa, Tavallo asarlarida shaxsiy “men”dan ko‘ra ko‘proq milliy “men” ustunlik qiladi. Chunki u o‘zini bevosita xalq taqdiriga javobgar hisoblaydi. Millat ahvolini o‘nglash asarlarining bosh g‘oyasi ekani sababli “g‘azit”, “majalla”, “tiyotr”, “maktab” obrazlariga faol murojaat etadi. So‘z san’atlari ham aynan mazkur obrazlar yordamida amalga oshiriladi: *“Kog‘azim – ko‘z pardasi, qonlar – siyoh, yozsam agar...”, “Suv verub ko‘ngil bog‘ini sabzazor aylar gazit...”, “Ko‘rurman bulbuli sho‘ridadur bir shox boshida, “Sadoyi Turkiston” nomina aylar navo millat”, “Millating shavqida qil o‘zni adam qaqnus kabi, Ko‘hi Qof tog‘ida bumlardek o‘turmoqdin na sud?”*

Tavallo millat va Vatan tushunchalarini aksar hollarda birgalikda qo‘llaydi. Uning badiiy tafakkuricha, bu tushunchalarni bir-biridan ajratish mumkin emas.

[13] “Худ” сураси 61-оят.

Ma'rifatli va ilmsiz zamondoshlar obraziga Tavallo ijodida ko'p bora murojaat etiladi. Ayrim o'rinlarda ular alohida tarixiy shaxslar, ba'zan umumlashma obrazlar sifatida gavdalanadi. "Teatr haqinda"gi g'azalda Munavvar qori va Mahmudxo'ja Behbudiy real hayotdagi kabi millat tanazzuli oldini olayotgan qahramonlar sifatida tasvirlanadi: *Cho'q munavvar etdi olamni Munavvar qorimiz, Ko'rdimiz ravshanlig'idan fe'limiz-atvorimiz.*

Tavallo, mashhur zamondoshlaridan tashqari, ilk teatr aktyorlari Ubaydulla, Karimbek, Nizomiddin nomlarini g'azallarida ma'rifat ulashuvchilar sifatida talqin etadi. Aslan, Tavallo ularning har birini individual obraz sifatida tasvirlasa-da, barcha obrazlarni bog'lab turuvchi g'oyaviy liniyani ham unutmaydi. Ularning maqsadi xalqni ma'rifatli qilish ekani nuqtayi nazaridan "Individuallashtirish bir xil maslak va g'oyadagi kishilarning rang-barang obrazlarini yaratish imkonini"[14] bergan.

Shoir Ismoilbekni ijodiy evrilishlarni boshidan o'tkazgunga qadar o'ziga ma'naviy peshvo deb bilganini uning vafoti munosabati bilan yozilgan:

Yig'la, millat, qon to'kub, aylab navolar yig'lagil,
Ismoilbek haqqida qilg'il duolar, yig'lagil, -

matla'li g'azali hamda "Tarjumon" g'azitasin noshir va muharriri mutavaffo Ismoilbek G'asfirinskiy janoblarining tarixi vafoti" nomli muxammasidagi she'riy san'atlardan ham ko'rish mumkin. *"Arsai olamda yakto", "durri noyob", "adiblar sarvari", "saodat yulduzi"* Ismoilbek olg'a surgan g'oyalar ham Tavallo ijodida yaqqol ko'zga tashlandi. "Totor qardoshlarimizning mashhur shoiri marhum Abdulla afandi To'qayevning she'rina tazmin" g'azalida Tavallo mana bunday yozadi:

Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid millatim,
San salomat, man farog'at, illatingdur illatim.

Marhum Abdullo To'qaydek yosh chog'imda ketmasam,
Ojizona shoiring bo'lmoqg'a vordur niyyatim.

Tavallo ijodida ilg'or zamondoshlar obraziga zid ravishda ilmsizlik, jaholat botqog'iga botgan zamondoshlar obrazi ham o'ziga xos tarzda ifoda etiladi. Ilg'or zamondoshlar obrazi aniq tarixiy shaxs prototipi asnosida yaratilgan bo'lsa, ilmsiz hamyurtlar qiyofasini yaratishda shoir umumlashma obrazlarga murojaat qiladi.

Ovro'po odamlari obrazi. Ovro'pocha ilm-fan taraqqiyotiga intilish Tavallo asarlarining asosiy mavzularidan. Eng avvalo, Ovro'po madaniyati xususida yozish Tavallo she'riyatida qiyosning imkonini oshiradi. Muallif Yevropa va o'z yurtining qiyosi vositasida jaholat botqog'iga botayotgan millat qiyofasini ochib beradi. "Yovro'polilar hunari birlan bizlarni(ng) hunarimizning farqi" nomli g'azalida Turkiston farzandlarining orqada qolishiga sabab bo'layotgan illatlar va ularning oqibatlarini qarshilantirish san'ati orqali ta'riflab beradi. Xususan, "zanburak"ka "sobqon", "aftomobil"ga "Ho'qand arava", "ayropilonu gidropilon"ga "varvarak", "zobut tovari"ga "bo'yra, bordon"... Mana shular bugungi Turkistonning "kuchi-qudrati", ilmsizlik sababli tushgan ahvoli... "Boshqa millatlar va biz" sarlavhali

[14] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 43.

g‘azalida esa “tarki Vatan aylab” Ovro‘poga borish, “jahon millatlari” kabi “turluk fununlar”ni o‘qish orqali “rivoji millat”ga erishish mumkinligini ta'sirli ifodalaydi.

Mazkur bobning navbatdagi fasli “*Adabiy-estetik tafakkur – poetik obraz yangilanishi asosi”* deb nomlangan. Jadid adabiyoti vakillari garchi adabiyotni estetik tafakkur vositasidan ko‘ra ko‘proq jamiyatni uyg‘otish quroliga aylantirgan bo‘lsalar ham, bu hayqiriq va da’vatlar insonni munosib sharoitda yashashga, o‘zidan balandroq bo‘lishga undadi. XX asr boshidagi o‘zbek she’riyatida xuddi shu tendensiya Tavallo ijodida ham aks etdi. Uning she’riyatidagi obrazlar, eng avvalo, o‘z davri tafakkurining mahsuli edi. Bu obrazlar zimmasiga millatni jaholat uyqusidan uyg‘otish vazifasi yuklangan edi. Shu bois shoirning adabiy-estetik qarashlari nafaqat mumtoz ijodkorlarimiznikidan, balki o‘z zamondoshlarinikidan ham farq qiladi. Tabiiyki, bu hol jadid adabiyotining xususiyati, yangilangan adabiy tafakkur hosilasi edi. Adabiyotning estetik o‘lchovlari o‘zgargani bu yangilanishning asosiy omilidir.

XX asr boshlarida Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti, dunyoni tanish, olamdagi hodisalarni anglashda gazeta va jurnaldan ko‘ra afzalroq vosita yo‘q edi. Ko‘rinib turganidek, Tavallo ijodida ma’rifat ulashuvchi vositalar obraz darajasiga ko‘tarilish asnosida shoir badiiy maqsadining ochqichi vazifasini ham o‘tadi. Shoir ijodida ilm-ma’rifat, o‘qish va o‘qitish ishlarining millat hayotidagi o‘rni beqiyosligiga urg‘u berilishi boisi shunda. Ayni shu sabab, ijodiy merosida “maktab” so‘ziga 78 bor, “ilm”ga 66 marta, “taraqqiy” masalasiga 34 va “o‘qimoq” tushunchasini anglatuvchi so‘zlarga 29 bora murojaat qilgani holda ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatadi. Uning ijodida an’anaviy aruzdagi ma'shuqa obrazi o‘rnida ma’rifat ulashuvchi vositalar – gazeta, jurnal, qalam obrazlari faol qo‘llanadi. Gazeta obrazi uning poetik tafakkurida bamisli mahbuba: goh dilni quvnatadi, goh yo‘liga xumor qiladi:

Yashnatib dil g‘unchasin fasli bahor aylar gazet,
Suv verub, ko‘ngil bog‘ini sabzavor aylar gazet.

Ayni o‘rinda Tavallo gazetani yangi obraz sifatida qo‘llash barobarida, an’anaviy **bulbul** obraziga o‘zgacha mazmun-mohiyat yuklaydi. Mumtoz adabiyotda oshiq obrazini ifodalovchi bulbul Tavallo ijodida millat dardi bilan yashayotgan fidoyi timsoliga aylanadi. Qaysidir ma’noda, an’anaviy obrazning yangi hayoti boshlanadi.

Tavallo ijodidagi ***“g‘ani”*** obrazi shoir ijodida ikki xil qiyofada namoyon bo‘ladi: birinchisi, o‘z mulkini keraksiz hashamlarga sarf etayotgan, ilm-ma’rifatdan yiroq boylar, ikkinchisi, millatning ma’rifati, taraqqiyoti uchun kurashayotgan, topganini shu yo‘lga sarflayotgan boylar obrazi. Shoir millatning o‘ziga to‘q g‘anilariga alohida umid bilan qaraydi. Ulardan millat taraqqiysi uchun homiylik va shijoat kutadi. Tavallo ijodidagi ana shunday obrazlardan yana biri – ***otalar*** obrazidir. Muallif bu obrazni millat tanazzulining sababchisi sifatida talqin etadi. Jaholat botqog‘iga botgan otalarning tipik qiyofasini yaratadi:

Necha bid’atni qilmoqqa berib siz imtihon dedim,
“Otamiz o‘rgatib ketdi” debon inkor yo‘x, yo‘x, yo‘x.

Ko‘rinib turganidek, bu o‘rinda ota obrazi asriy g‘aflat botqog‘iga botgan ajdodlarning umumlashma qiyofasini o‘zida aks ettirmoqda. Shoir bid’atni otamiz

o‘rgatib ketgan degan aqidadagi odamlar holatini tasvirlash orqali obrazning ta'sir kuchini oshirgan.

Tavallo ***yoshlar*** obraziga alohida mazmun, alohida vazifa yuklaydi. Shoir yoshlarga millatni g‘aflatdan uyg‘otuvchilar, jamiyatning xaloskorlari sifatida qaraydi, ularga umid ko‘zini tikadi:

Yoshlar, bu kun bilingiz, himmat-g‘ayrat qilingiz,
Maktab sari yuringiz, o‘tmasun oy-yilingiz.

Shoir yoshlarni ilm-ma’rifat taraqqiysiga chorlar ekan, millat yoshlarining tipik obrazini yaratadi. Ijodkorning yuksak adabiy-estetik tafakkuri natijasi o‘laroq yaralgan obrazlar nafaqat badiiy vazifa bajaradi, shu bilan bir qatorda, ijtimoiy yukka ham egadir. Tavallo lirikasidagi ayni shunday obrazlardan yana biri – ***podshoh***. Eng avvalo, bu obrazga katta ijtimoiy vazifa yuklanganini alohida ta’kidlash joiz. Shoir ijodidagi podshoh kim?

Podshoho, doimo bo‘lsun madadkoring Xudo,
Haqqinga tinmay hamon aylar duo shahu gado.

Shoir bu obraz zimmasiga yuklagan maqsadini tadrijiy ravishda ocha boradi:

Dushmaning qornini tilsun xanjaring parron bo‘lub,
Bo‘lsun o‘tkur ilkida misli zulfiqori Murtazo.

“Dushman” obrazi, “xanjar” va “zulfiqori Murtazo” poetik detallari ushbu obraz zimmasiga yuklangan poetik mazmun mohiyatini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Podshoh obrazi shoir nazdida millatning himoyachisi va xaloskoridir. Muallif dushmanni mahv etishda podshohdan umid qiladi. Uning askarlari kuch-qudratidan najot kutadi. Ammo vaziyat shoir kutganidek bo‘lmadi. Xalqning ham, ijodkorning ham orzulari ayni shu obraz zamirida qolib ketdi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Tavallo badiiy publitsistikasining poetik tafakkur yangilanishidagi o‘rni”** deb nomlanib, uning birinchi faslida *“Ijodkor badiiy publitsistikasining mavzuiy tasnifi va ularda ijtimoiy voqelikning yoritilishi”* tadqiq etilgan. Tavallo millat hayotini isloh etish, gazeta-jurnallar faoliyati, ularga homiylik zarurligi haqida she’r yozishdan tashqari, milliy matbuot sahifalarida badiiy-publitsistik maqolalar ham chop ettirdi. U she’r va maqolalari bilan asosan, “Oyna”, “Al-Isloh”, “Al-Izoh”, “Mushtum” jurnallari, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Najot”, “Samarqand” kabi gazetalarda qatnashdi. Publitsistikasining asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

bid’at va mutaassiblikni qoralash;
Vatan va millat taraqqiysi;
maktab ta’limi va ilmni taraqqiy ettirish;
yangi zamon fan-texnologiyasidan xabardorlikka da’vat.

1913-yilning 20-avgustida nishona soni chiqib, tom ma’noda millat oynasiga aylangan “Oyna” jurnalidagi ilk maqolasi *“Turkistonli qardoshlarima ochiq xat”* deb nomlanadi. Maqolada, avvalo, majalla va jaridalar chiqarish, ya’ni matbuotga e’tiborsizlik oqibatlari tilga olinadi. “Albatta, bul bizlarning ishsizlik va ilmsizligimizdandur”, deydi muallif. Agarda gazeta-jurnallar adadi ko‘paysa, “boylarimiz ham majalla va gazeta nasihati va tanqidini tinglab, aziz bolalari uchun qayg‘urub, bid’at ishlara qiladurgon behuda sarflarin qo‘yub, millat taraqqiysig‘a

cholishurlar edi. Ulamolarimiz-da majalla va g‘azeta sababi-la ahvoli zamondan xabardor bo‘lib, millatg‘a, zamonga xizmat qilur edilar”.

Tavallo yurtdoshlarining o‘zga millatlar yutug‘idan ibrat olishini, “millatg‘a yordamda bo‘lmoqi”ni orzu qiladi. Buning yechimini esa “ijtihod va ittifoq”da ko‘radi. Ochiq xat orqali muallif o‘z armoninigina emas, millat tanazzulining sabablarini ko‘rsatadi. Boshqalar bilan tenglashish uchun, avvalo, aql-zakovat, dunyodan voqif bo‘lish zaruratini his qiladi. Majalla va jarida chiqarish, mutolaa qilishni ko‘paytirish masalasiga e'tiborliroq bo‘lishga da’vat etadi. Shu yo‘l bilan millatdoshlarini “Oyna”ni moddiy jihatdan ta’minlashga, ma’rifiy darajani yaxshilashga chorlaydi.

Ijodkor badiiy publitsistikasining ahamiyatli jihatlaridan biri, Tavallo milliy matbuotimizda Mahmudxo‘ja Behbudiydan keyin davomli bahs-munozaraga kirishgan ijodkorlardan. Tavallo “Turkiston viloyatining gazeti”da Hoji Mu’in hamda Fuzayl Jonboy bilan “Oyina” jurnali yuzasidan bahsga kirishadi. Gazetaning 1914-yil 16-mart 22-sonida chop etilgan “E’tizor” sarlavhali maqolasida “Samarqand” gazetasining yopilgani, uning muharriri yana g‘ayrat qilib tashkil etgan “Oyna” jurnalining xayrli ishlari tilga olinadi. Shu bilan birga, muallif o‘zi tomonidan jo‘natilgan she’r va maqolalar kechikib chop etilganidan ranjiganini bildiradi. Maqolada, bundan tashqari, Turkistonning kundalik hayotiga “Vaqt” gazetasining munosabati ham tahlil etiladi. Maqoladagi “Oyna”ga oid fikrlar toshkentlik muallim Fuzayl Jonboyda e’tiroz tug‘diradi va gazetaning 1914-yil 30-martdagi 26-sonida “Ochuq maktub”ini e’lon qiladi. Muallif Tavalloning arazini noo‘rin hisoblab, *“bizning hozirgi gazet-jurnallarimizga yozuvchilar ishqu havas o‘rniga mana endi arozlaganga tushib ketubdurlar”*, deya xulosa qiladi.

Bahsga Hoji Mu’in ham aralashadi. Gazetaning 1914-yil 10-apreldagi 28-sonida chop etilgan “Haqiqatsiz iftiro” nomli maqola Tavalloning har ikki ijodkorga javobi bo‘ldi. Bahs davom etadi: 1914-yil 24-aprel, 32-sonida “Ответ Хаджамиярову” ruknida Fuzayl Jonboy Tavalloga e’tirozlarini bildiradi. Bu qarshilikka javob esa “Turkiston viloyatining gazeti” 1914-yil 1-maydagi 34-sonida e’lon qilinadi. So‘nggi javobda Tavalloning nuktadonligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

<u>Vatan va millat taraqqiysi:</u> Tavalloning barcha janrdagi asarlari kabi publitsistikasiga ham xos umumiy mavzu bor: millat va uning taraqqiyotini ko‘rish orzusi. Aslida, ushbu tushunchalar jadidchilikning bosh g‘oyasidir. Ijodkor badiiy-publitsistik maqolalarining barchasida millatning kundalik ahvoli, dunyoviy ilmlarni egallashda xurofot botqog‘iga botib qolgan o‘zbekning loqaydligi va sustkashligi achchiq satira ostida keskin tanqid qilinadi. Yurtdoshlarini imkon qadar dunyo taraqqiyotiga e’tibor qaratishga undaydi. Dunyoning bir tomonida ilm-fan, texnika gurillab o‘sib borayotgani, Turkistonda esa bu holning aksi ekanidan nadomat chekadi: *“Millatlar qancha ilmga rag‘bat etsalar, bizlar hamon qocharmiz”,* deya taassufini bildiradi.

<u>Maktab ta’limi va ilmni taraqqiy ettirish:</u> Tavallo publitsistikasida ilmga intilish va uni targ‘ib etish eng muhim masalalardan biridir. “Turkiston viloyatining

gazeti” (1916-yil 27-noyabr, 60-son)da e’lon qilingan “Ilm natijalari” sarlavhali maqolasida ayni shu mavzuga o‘ziga xos yondashuvi kuzatiladi.

Hajv asnosida illatlarning fosh etilishi: 20-yillarga kelib uning uslubidan yana bir o‘ziga xoslik – nazmda ham, publitsistikada ham hajv imkoniyatlaridan unumli foydalanish ko‘zga tashlana bordi. Bu ma’lum ma’noda “Mushtum”dagi faoliyat bilan chambarchas bog‘liq edi.

Tavalloning “Mushtum”da chop etilgan maqollari ichida jamiyat va millat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan illatlar: poraxo‘rlik, xalqini aldash, xo‘jasizlik, loqaydlik, ongsizlik – hammasi o‘tkir hajv tig‘i ostida keskin fosh etiladi.

Yangi zamon fan-texnologiyasidan xabardorlikka da’vat. Tavallo turkistonliklarning dunyo madaniyatini o‘zlashtirishini chin dildan orzu qilgan ijodkordir. Ammo ming afsuski, dunyo shitob bilan harakatlanayotgan bir paytda turkistonliklar jim, sust. Adib badiiy publitsistikasida davrning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolari aks etdi, ko‘pchilik hollarda o‘tkir hajv ostiga olinib, keskin tanqid qilindi. Uning badiiy publitsistikasida quyidagi jihatlar qalamga olindi:

jadidchilik mafkurasi va ma’rifatchilik targ‘ib qilindi;

loqaydlik va ilmsizlik qoralandi, mavjud siyosiy tuzum kirdikorlari ayovsiz fosh etildi;

hajviy maqolalarida boshdan oxiriga qadar kesatiq, qochiriqlar, istehzo, kinoya usuli ustuvor bo‘lib, millat taqdiridan xavotir va qayg‘u hissi yetakchilik qiladi.

Tavallo ijodining bosh g‘oyasi millat taraqqiysi bo‘lgani bois, badiiy publitsistikasida asosan shu mavzu yoritildi. Aslida, Tavallo ijodining janrlari, uslubi, ifoda usullari farqli bo‘lsa-da, mazmunan ular umumiy yaxlitlikka ega. Badiiy publitsistikasining tub zamirida hurlik, taraqqiy va millatning yorqin kelajagi bilan bog‘liq orzulari, armonlari pafos bilan talqin etiladi.

